

Kichik tadbirkorlik
Yanvar-iyun 2019 yil

E'tibor bering!

>2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 70,4%ni tashkil etdi.


>3,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.

>2019 yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,5 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-iyunda 3,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbati 21,8% ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda savdo (36,5) sanoatda (22,3), qurilish tarmog'ida (7,4) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga (13,0%), yashash va ovqatlanishda (8,3%), tashih va saqlashda (2,7%) tashkil etgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
Kichik korxonalar va mikrofirmalarning
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	11278	14353	3075
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	933	3125	2192
YaHM	%	74,8	70,4	-4,4
Sanoat	%	36,2	32,0	-4,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,3	99,1	-0,2
Investitsiya	%	63,7	68,3	4,6
Qurilish	%	90,7	93,9	3,2
Savdo	%	82,6	76,5	-6,1
Xizmatlar	%	67,7	64,9	-2,8
Yuk tashish	%	91,5	92,7	1,2
Yuk aylanmasi	%	103,3	92,7	-10,6
Yo'lovchi tashish	%	94,3	94,2	-0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	102,5	94,2	-8,3
Eksport	%	70,7	91,8	21,1
Import	%	97,4	92,8	-4,6


Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Xorazm viloyati	933	3125
Urganch sh	247	578
Xiva sh	78	298
<i>Tumanlar:</i>		
Bog'ot	50	173
Gurlan	51	238
Qo'shko'pir	61	212
Urganch	125	425
Xazorasp	59	267
Xonqa	69	242
Xiva	58	214
Shovot	53	198
Yangiariq	52	169
Yangibozor	30	111

2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Urganch shahrida - 578 ta, Urganch tumanida - 425 ta, Xiva shahrida - 298 ta, Xazorasp tumanida - 267 ta, Xonqa tumani - 242 ta, Xiva tumanida - 214 ta, Qo'shko'pir tumanida - 212 ta, Shovot, Bog'ot, Yangiariq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 169-198 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Yangibozor tumanida - 111 tani tashkil etgan.

2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Urganch sh. - 18,4 %, Urganch tumani - 13,6 %, Xiva sh. - 9,5 %, Xazorasp tumani - 8,5 %, Xonga tumani - 7,7 % Gurlan tumani - 7,6 %, Qo'shko'pir tumani - 6,7 %, Xiva tumani - 6,8 %, Shovot tumani - 6,5%, Bog'ot tumani - 5,5 %, Yangiariq tumani - 5,4 %, eng past ko'rsatkich Yangibozor tumanida - 3,5 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-iyun 2018 y.	yanvar-iyun 2019 y.
Jami	933	3125
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	107	407
Sanoat	197	699
Qurilish	129	232
Savdo	277	1142
Tashish va saqlash	35	86
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	66	260
Axborot va aloqa	11	31
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	20	34
Boshqa turdagi xizmatlar	91	234

2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 1142 ta, shuningdek :

savdoda- 1142 ta;

sanoatda –699

qurilishda - 232 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 407 ta;

xizmatda - 260 ta ni tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-iyun 2019 y.	yanvar-iyun 2018 y.	farq (+-)
Urganch sh	578	247	331
Urganch	425	125	300
Xiva sh	298	78	220
Xazorasp	267	59	208
Xonqa	242	69	173
Gurlan	238	51	187
Xiva	214	58	156
Qo'shko'pir	212	61	151

2019 yil yanvar-iyunida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Urganch shahrida – 578 ta, Urganch tumanida– 425 ta, Xazorasp tumanida - 267 ta. Xiva shahrida bu ko'rsatkich 298 tani tashkil etdi, Gurlan tumanida - 238 ta, Xonqa tumanida - 242 ta. Xiva tumanida – 214 va Qo'shko'pir tumanida- 212 tani, Bogot va Yangibozar tumanlarida bu ko'rsatkich 173-111 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ Yanvar-iyun 2019 y. ■ Yanvar-iyun 2018 y. ■ farq.(+-)


2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 23,9 birlikda, Yangibozor tumanida 17,1 birlikda, Xiva shahrida 16,2 birlikda, Yangiariq tumanida 15,3 birlikda, Xiva tumanida 11,4 birlikda va Urganch tumanida 12,0 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 10-12 birlik oralig'ida Gurlan, Xonqa, Xazorasp, Shovot, Qo'shko'pir, tumanlarida aniqlandi. Bog'ot tumanida 6,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2018 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,6 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 10,5 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,1 birlikka kamaydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 32,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,1 %, qurilishda - 93,9 %, investitsiyada - 68,3 %, savdoda - 76,5 %, eksportda - 91,8 %, importda - 92,8 % va xizmatlar sohasidagi - 64,9 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %

2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 70,4 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 74,8 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Xorazm	32,0	93,9	64,9	68,3
Urganch sh	50,8	90,8	38,9	44,4
Xiva sh	97,9	98,2	87,7	74,2
<i>Tumanlar:</i>				
Bog`ot	62,1	94,1	96,5	81,6
Gurlan	56,1	100,0	98,2	74,6
Qo`shko`pir	56,5	90,5	92,2	73,4
Urganch	79,0	92,7	79,5	60,4
Xazorasp	4,9	99,7	94,5	72,3
Xonqa	26,4	90,0	91,5	82,8
Xiva	99,8	92,9	94,5	65,6
Shovot	70,9	100,0	96,8	69,4
Yangiariq	49,2	100,0	96,7	88,1
Yangibozor	35,6	90,9	97,5	78,5


Hududlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Xiva tumani (99,8 %), Xiva shahar (97,9 %) va Urganch (79,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Xazorasp (99,7 %), Shovot (100,0 %) Gurlan (100,0 %), va Yangiariq (100,0 %) tumanlarni tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Gurlan (98,2 %), Qo`shko`pir (92,2 %), Xonqa (91,5 %), Yangibozor (97,5 %), Shovot (96,8 %), va Bog`ot (96,5 %) tumanlari tashkil etadi.


Investitsiyada - Yangiariq (88,1%), Xonqa (82,8 %) va Bog`ot (81,6%) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat) larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yangibozor tumani - 100,0%,Yangiariq tumani -100,0%,Shovot tumani –100,0%,Xiva tumanida -100,0 % Qo'shko'pir tumani -100,0 % Gurlan tumani - 100,0 %,Bog'ot tumanida – 100,0 % , eng past ko'rsatkichni Urganch tumani - 65,5 %, va Urganch sh. - 78,7 %, ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (446,6 mlrd. so'm), Shovot (166,3 mlrd. so'm), Bog'ot (85,2 mlrd. so'm) va Xazoraspda (89,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xiva shahar (49,1 mlrd. so'm) va Yangibozor tumanida (23,1 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Xiva tumanida (99,8%), Xiva shahri (97,9%), Shovot tumani (70,9%), Urganch tumani (79,0%), Bog'ot tumani (62,1%), Qo'shko'pir tumani (56,5%) va Urganch shahari (50,8%). Yangibozor (35,6%) va Xazorasp tumanida (4,9%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (600,8 mlrd. so'm), Xazorasp (336,3 mlrd.so'm), Urganch (265,4 mlrd. so'm), Gurlan (202,4 mlrd. so'm), va Xonqa (181,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (267,9 mlrd. so'm), Xiva tumani (168,0 mlrd. so'm), Urganch (113,0 mlrd. so'm), Shovot (87,7 mlrd. so'm), hamda Xonqa (85,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (499,8 mlrd.so'm), Urganch (163,1 mlrd.so'm), Xazorasp (144,6 mlrd.so'm), Xonqa (109,0 mlrd.so'm) va Gurlan (109,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko'ra , yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 153 respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalarini- 34 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 22,2%), qurilish-12 (7,8%), savdo-56 (36,6 %), xizmatlar sohasi-33 (21,6 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 18 (11,8 %) tashkil etdi.

2019 yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Urganch shahrida - 18,3%, Urganch tumani - 11,7 %, Xonqa tumani - 12,4 %, Xazorasp tumani - 6,5 %, Xiva sh -9,1 va Shovot tumanida - 7,8 %. ulushini tashkil qildi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 100 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida qulay – 32,2% va qoniqarli 62,5 %, qoniqarsiz- 5,3%, xizmatlar sohasida qulay –18,2 % qoniqarli 75,7 %, va qoniqarsiz –6,1 % qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida qulay-38,8%, qoniqarli 50,0 % va qoniqarsiz –11,2 %, sanoatda sohasida qulay – 23,6 % qoniqarli 70,6 % va 5,8 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda-3,7 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 82,4% sanoat korxonalarini, 66,1 % – savdo, 69,7% – xizmatlar, 83,3% – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 33,3 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: T.Xodjaniyazov

Tel.: (0372) 230-87-69, 230-87-66